

## TIJORAT BANKLARINING MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASHI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Z.Olqarova

*Toshket moliya institute talabasi*

*Ilmiy rahbar: B.Boyev*

**Annotatsiya:** *Maqolada bank tizimidagi kredit portfellari va muammoli kreditlar bilan ish olib boorish masalalari bo'yicha mavjud ishlarning tahlili va qonunchilik doirasida ko'rilayotgan chora-tadbirlarning analizi qilingan bo'lib ushbu sohada kredit berish va qaytarib olish tiziminining samarali faoliyatini taminlash haqida bazi tavsiyalar ham berib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tijorat banklari, aktivlar, kredit portfellari, kredit, risk, muddati o'tgan to'lovlar.*

### KIRISH

Moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg'or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi.

Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhitni yaratadigan O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi, «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi hamda «To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida»gi yangilangan qonunlari qabul qilindi.

Shu bilan birga, bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining etarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda<sup>1</sup>.

Tijorat banklari jalb qilgan mablag'larining asosiy qismini kredit berish sifatida foydalanar ekan, bunda faqatgina daromad olish uchun emas, balki mablag'larni kredit oluvchidan to'liq qaytarib olish masalasini oldindan belgilab olishi zarur. Chunki, bank sarmoya egasi sifatida sarmoyani emas, balki sarmoyadan foydalanish huquqini ma'lum bir shart va ustama foizlar asosida ma'lum muddatga sotadi.

Ayni paytda mamlakatimizda ham ilmiy-nazariy hamda amaliyotchi olimlar tomonidan "muammoli kredit" tushunchasi avvalgiga nisbatan ancha ko'proq bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bu albatta, bejizga emas, chunki bugungi kunda respublikamiz tijorat banklarining kredit portfelida muammoli kreditlarning ulushi, uni kamaytirish choralari ko'rilishiga qaramasdan anchagina yuqori foizni tashkil etmoqda.

<sup>1</sup> 2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son  
<https://lex.uz/uz/docs/4811025?ONDATE=30.12.2021&ONDATE2=18.10.2021&action=compare>

Bugungi kunda ko'pgina davlatlar bank tizimida umidsiz qarzlarning ko'payishi muammosiga duch kelayotganligi tufayli banklarning muammoli kreditlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish masalalari dolzarbligi hozirgacha muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun kreditorlar bilan bir qatorda mijozlar tomonidan kreditni qaytarish bo'yicha o'z yechimini topmagan muammolar mavjud.<sup>2</sup>

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy adabiyotlarda muammoli kreditlar bo'yicha turli xilma-xil ta'riflar berilgan. Ayrim adabiyotlarda, muammoli kredit deganda ob'ekti, sub'ekti va ta'minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo'lgan kredit tushumilsa[8], ayrim adabiyotlarda muammoli kreditlar deganda, "qarz oluvchi bir yoki bir necha to'lovlarni amalga oshirmaganligi yoki kredit ta'minoti qiymatining pasayishi kreditni muammoli kreditlar turkumiga o'tishini anglatadi"<sup>3</sup> deya ta'rif berilgan.

Tijorat banklarida muddati o'tgan kreditlar bilan ishlash va ularning portfelini boshqarish samaradorligini oshirish masalalari bir qator xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan va kredit portfeli tushunchasini uning mohiyatiga berilgan ta'riflarda ifodalangan. Masalan amerikalik iqtisodchilar Kris J. Barlton, Diana Mak Noton kredit portfeli - bu kreditlarni turkumlashni o'z ichiga oladi deb ta'riflashadi<sup>4</sup>.

O'z o'rnida, bank sektorining ichki va tashqi ish faoliyatlari ITlarning rivojlanishi bilan yanada rivojlanib bormoqda va bu eng katta ta'sir qilgan soha sifatida bank tizimini ko'rsatish mumkin<sup>5</sup>.

Shuningdek, N. Sokolinskaya "kredit portfeli qisqa va uzoq muddatli kreditlar yig'indisidan iborat" deb ta'riflaydi va muammoli kreditlarni boshqarish masalasiga alohida to'xtalib o'tadi<sup>6</sup>. Bu ta'rifda asosiy e'tibor kreditning muddatiga qaratilgan bu holat kredit holatini va mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Chunki, bank tomonidan berilgan kreditlarning muddatini belgilab qo'yilishi va unga rioya qilinishi faqat kredit klassifikatsiyasi sifatini aniqlashda muhim omil bo'lishi mumkin.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham bu borada qator izlanishlarni olib borishgan, xususan, Sh.Z.Abdullaevaning fikriga ko'ra, banklarning muddati o'tgan kreditlari - bu turli xil kredit risklariga asoslangan muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlarning qaytarilishida yo'l qo'yilgan kamchiliklar bo'lib, asta sekin umumiy bank aktivlarining standart holatiga tasir qiladi deb aytadi.<sup>7</sup> Iqtisodchi olim a o'z ta'rifida kreditlarning ma'lum bir mezonlar asosida turkumlanishiga, shu bilan birga kredit risklariga alohida to'xtalib o'tgan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ta'riflarning o'ziga xos jihatlari tahlil qilgan holda muddati o'tgan kredit tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin deb hisoblaymiz: Avvalo

<sup>2</sup> Muhammadiyev, Dilmurod Abdulhakim O'G'LI TIJORAT BANKLARI RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI // ORIENSS. 2021. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tijorat-banklari-resurslaridan-samarali-foydalanish-yo-llari> (дата обращения: 08.12.2022).

<sup>3</sup> Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. T.: Moliya, 2012, 124-6.

<sup>4</sup> Sattarov O., Beknazarov E. Tijorat banklarida GEP va uni boshqarish. Monografiya. -T.: EXTREMUM PRESS. 2011 y. - 82 b

<sup>5</sup> Saeid Khajeh Dangolania. The impact of information technology in banking system (A case study in bank Keshavarzi Iran) // Procedia - social and behavioral sciences, Vol. 30, 2011. - 13-16 p.

<sup>6</sup> Диана Мак Нотон. Банковские учреждения в развивающихся странах.- ИЭР МБПП.-Вашингтон Д.С., 2011.-с.75

<sup>7</sup> Sattarov O., Beknazarov E. Tijorat banklarida GEP va uni boshqarish. Monografiya. -T.: EXTREMUM PRESS. 2011 y. - 82 b

bankning kredit portfeli- bu bankning kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur asos sanalib, bank tomonidan berilgan jami kreditlarning yig'indisini o'zida ifodalaydi. Uning turli shakllarida kreditorning belgilangan qarzni kech to'lashi yoki to'liq to'lamasligi va bunda vaqt omilining suistemol qilinishi biz yuqorida so'z yuritayotgan masala obykti bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, banklar faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o'rinni egallagani uchun ularning kredit paketlarini to'g'ri tashkil qilish banklarning samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kredit operatsiyalarini olib borishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar banklar daromadining kamayishiga, ba'zi hollarda ularning sinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, banklarning kredit portfeli va uning sifatini nazorat qilib borish tijorat banklari samarali faoliyatining garovidir<sup>8</sup>.

Yuqorida o'rganilgan holatlarga asoslanib, respublikamiz tijorat banklarida muddati o'tgan kreditlarni boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari yuzasidan izlanishlar olib borilishini doimo dolzarb deb hisoblaymiz.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Mazkur tadqiqotda statistik jadval va grafiklar, analitik taqqoslash, mantiqiy va taqqoslama tahlil, guruhlash usullari hamda mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlaridan keng foydalanilgan.

Shuningdek maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning tijorat banklarida muddati o'tgan kreditlarni samarali boshqarish masalalari bo'yicha izlanishlari, olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma'lumotlarni tizimlash bo'yicha maxsus yondashuvlar, ya'ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Fikrimizcha, muammoli kredit deganda, "substandart", "shubhali" va "umidsiz" kreditlar sifatida tasniflangan kreditlar tushuniladi. O'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, muammoli kreditlar kredit risklarining amaldagi yaqqol namoyon bo'lishining natijasidir, chunki bu bank tomonidan kredit risklarini to'g'ri boshqara olmaslik oqibati bo'lib hisoblanadi. "Muammoli kredit" tushunchasi "kredit risklari" kategoriyasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli muammoli kreditlar mohiyatini ochib berishda bank kredit risklarining iqtisodiy mazmuniga to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi. Bu yuqorida qo'yilgan maqsadga erishishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat banklarida vujudga keladigan kredit riskining asosiy qismi mamlakatdagi ayrim bir tarmoqdagi mahsulotga bo'lgan talab va ishlab chiqarishning pasayib ketish ehtimoli bilan uzviy bog'liqdir. Bularga qo'shimcha sifatida bank kredit riski darajasiga quyidagi omillar ta'sir etadi desak xato bo'lmaydi:

---

<sup>8</sup> Azlarova Aziza Axrorovna "TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISH MASALALARI" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2018 yil 3-b

- bank kredit faoliyatining iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga tez moslashadigan, shuningdek o'z mahsulotiga elastik talabga ega bo'lgan qaysidir bir tarmoq yoki doirada to'planish darajasi. Bu bank mijozlarining ma'lum tarmoqlarda yoki geografik hududlarda, ayniqsa, bozor o'zgarishlariga ta'sirchan to'planish darajasi bilan bog'liqdir;

- bank faoliyatining kam o'rganilgan, yangi noan'anaviy tarmoq va doiralarda shakllanish darajasi;

- bank amaliyotiga yangi xizmat turlarini qisqa muddat davomida ko'p miqdorda tatbiq etilishi yangi bank xizmatlariga bo'lgan talabning ozligidan bank salbiy natija olishi mumkin;

- yaqin muddat ichida yangi jalb qilingan mijozlarning katta qismini tashkil qilishi;

- kredit va boshqa bank shartnomalarining katta qismining o'zi ma'lum bir qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan mijozlarga to'g'ri kelishi va boshqalar.

Amaldagi qonunchilikda bank kredit portfeli muntazam ravishda tahlil va audit qilinishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bunda kredit sifatini aniqlash bilan bir qatorda kreditlash jarayonini boshqarish sifatini baholash, jumladan, tasdiqlangan kredit siyosatiga va kredit hujjatlarini rasmiylashtirish jarayonlariga, garovni rasmiylashtirish va baholash, kreditlashga doir vakolatlarni taqsimlash, qonunchilik me'yorlariga rioya qilishga muvofiqligini ta'minlashga e'tibor qaratilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 9 noyabr 1998 yilda tasdiqlangan №242-sonli «Aktivlar sifatini tasniflash, mumkin bo'lgan yo'qotishlar bo'yicha tijorat banklari tomonidan zaxiralar tashkil qilish va undan foydalanish qoidasi»ga asosan tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar yuqorida keltirilgan mezonlar bo'yicha «yaxshi», «standart», «substandart», «shubhali», «umidsiz» yoki ishonchsiz kreditlarga tasniflanadi.

Aktivlar sifati bo'yicha tasniflanib, har hisobot davrida ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar tashkil qilinib boriladi. Bu zaxiralar bankning taqsimlanmagan foydasi hisobidan kredit qo'yilmasining o'sha davrdagi qoldig'iga nisbatan shakllantiriladi.

<b>Кредитларнинг сифати бўйича таснифлари</b>	<b>Эҳтимолий йўқотишлар бўйича заҳиралар учун ажратмалар нормаси</b>
<i>1</i>	<i>2</i>
Яхши	0%
Стандарт	10%
Субстандарт	25%
Шубҳали	50%
Умидсиз	100%
Умидсиз (муддати ўтган ва суд жараёнидаги кредитлар)	150%

*1-rasm. Kreditlarning sifati bo'yicha shakllantirilishi lozim bo'lgan zaxiralar me'yori<sup>9</sup>*

<sup>9</sup> Z.T. Mamadiyarov, assistent, X.S. Tillaev assistent, TDIU " "Tijorat banklarida muammoli kreditlarning vujudga kelish sabablari va ularni kamaytirish yo'llari" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2015 yil 5-b

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda muammoli kreditlarning kelib chiqish sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, banklarning muammoli kreditlarini yuzaga kelishida ichki omillar 67 foiz yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Bu ko'rsatkich tashqi omillar bo'yicha bor yo'g'i 33 foizni tashkil etadi. Ichki omillarga ta'minotning etishmasligi 22 foizni, ssuda buyurtmasini o'rganishda axborotning noto'g'ri baholanishi 21 foizni, operatsiya nazoratining zaifligi, hamda dastlabki ogohlantiruvchi belgilarni o'z vaqtida aniqlanmasligi va ular yuzasidan tegishli choralarning ko'rmasligi 18 foizni, garov ta'minoti sifatining pastligi 5 foizni, shartnomada ko'rsatilgan ta'minotni olish imkoniyatining yo'qligi 1 foizni tashkil etgan. Tashqi omillarga esa kompaniyaning bankrot bo'lishi 12 foizni, korxonalar moliyaviy nazoratining kuchsizligi 11 foizni, kompaniyaning bozorda o'z o'rini yo'qotishi va ichki ijtimoiy muammolar 6 foizni, o'g'irlik, muttahamlik 4 foizni jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra tashkil etgan<sup>10</sup>.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida aktivlar bo'yicha ehtimoliy zaxiralar yaratish borasidagi amaldagi me'yoriy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan. Jumladan, 2020-yil 13 iyunda Markaziy bank Boshqaruvining «Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish tartibiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 34/5- sonli qarori qabul qilingan.

Ko'rsatkichlar nomi	mlrd. so'm											
	Yan.	Fev.	Mart	Apr.	May	Iyun	Iyul	Avg.	Sen.	Okt.	Noy.	Dek.
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
<b>Regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati</b>	<b>17,4</b>	<b>17,6</b>	<b>17,6</b>	<b>17,1</b>	<b>16,7</b>	<b>17,0</b>						
Regulyativ kapital	72 104	74 419	76 142	76 359	76 816	77 684						
Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi	414 538	422 106	432 016	447 382	459 303	456 857						
<b>I darajali kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati</b>	<b>15,5</b>	<b>15,6</b>	<b>15,2</b>	<b>14,7</b>	<b>14,3</b>	<b>14,4</b>						
I darajali kapital	64 302	65 786	65 465	65 888	65 774	65 819						
Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi	414 538	422 106	432 016	447 382	459 303	456 857						
<b>Zahiralar chegirilgan holda muammoli kreditlar va mikroqarzlarning regulyativ kapitalga nisbati</b>	<b>13,5</b>	<b>14,0</b>	<b>13,9</b>	<b>15,9</b>	<b>15,6</b>	<b>13,8</b>						
Zahiralar chegirilgan holdagi muammoli kreditlar va mikroqarzlarning regulyativ kapital	9 758	10 412	10 549	12 142	11 951	10 700						
<b>I darajali asosiy kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati</b>	<b>15,5</b>	<b>15,5</b>	<b>15,1</b>	<b>14,7</b>	<b>14,3</b>	<b>14,4</b>						
I darajali asosiy kapital	64 107	65 590	65 270	65 692	65 579	65 624						
Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi	414 538	422 106	432 016	447 382	459 303	456 857						
<b>I darajali kapitalning jami aktivlar summasiga nisbati</b>	<b>14,8</b>	<b>15,1</b>	<b>14,6</b>	<b>14,0</b>	<b>13,3</b>	<b>13,3</b>						
I darajali kapital	64 302	65 786	65 465	65 888	65 774	65 819						
Jami aktivlar	434 777	436 834	449 501	470 013	493 734	495 655						
<b>Muammoli kreditlarning jami kreditlar va mikroqarzlarga nisbati</b>	<b>5,3</b>	<b>5,2</b>	<b>4,9</b>	<b>5,2</b>	<b>5,2</b>	<b>4,8</b>						
Muammoli kreditlar va mikroqarzlarning jami kreditlar va mikroqarzlarning	17 294	17 212	16 831	18 028	18 282	16 795						
Jami kreditlar va mikroqarzlarning	328 683	331 796	345 280	345 296	350 582	348 765						

*2-rasm. 2022-yilda bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari (davr oxiriga)*

Statistik ma'lumotlarga qaralganda joriy yilda tijorat banklarining muammoli kreditlari biroz kamayib 17,1 trln so'mni tashkil etdi. (1-jadval)

Muammoli kredit ulushi "O'zagroeksportbank"da kamaygan bo'lsa, "Ravnaq bank"da 72,3%ga yetgan.

Markaziy bank joriy yilning 1-oktabr holatiga tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida statistikani e'lon qildi.

<sup>10</sup> [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org) 2022-yildagi ma'lumotlari asosida

Muammoli kreditlar hajmi biroz kamayib 17,1 trln so‘m ya‘ni 4,7%ni tashkil etadi. Sentabr oyida ularning ko‘rsatkichi 17,4 trln so‘m edi.

Shundan 14,7 trln so‘mi davlat ulushi mavjud banklarga, qolgan 2,3 trln so‘mi xususiy banklar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Banklarning jami kreditlar ulushi hisobida eng muammoli kreditlar “O‘zagroeksportbank”da kuzatildi. Mazkur bankning kredit portfeli jami 8 mlrd so‘mni tashkil etib, muammoli kredit ulushi 7 mlrd so‘m – 91,9%ga yetgan.

Sentabr oyida mazkur bankning muammoli kreditlari 94,9%ni tashkil etgandi.

Xususiy banklardan “Turkiston bank” hamda “Hi-Tech bank”ning muammoli kredit ulushi 95% va 93,8%ni tashkil etdi. Shuningdek, “Ravnaq bank”ning ham muammoli kreditlar hajmi 72,3%ga yetgan. O‘tgan oyda bu ko‘rsatkich 58,5%ni tashkil etgandi.

*1-jadval*

*Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2022-yil 1-mart holatiga ma‘lumot (mlrd. so‘m)*

№	Bank nomi	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
<b>Jami</b>		<b>327 180</b>	<b>17 212</b>	<b>5,3%</b>
<b>Davlat ulushi mavjud banklar</b>		<b>279 218</b>	<b>15 290</b>	<b>5,5%</b>
1	O‘zmilliybank	74 372	3 375	4,5%
2	O‘zsanoatqurilishbank	41 852	1 575	3,8%
3	Asaka bank	37 341	1 803	4,8%
4	Agrobank	32 798	1 523	4,6%
5	Ipoteka-bank	28 849	990	3,4%
6	Xalq banki	19 083	3 719	19,5%
7	Qishloq qurilish bank	17 795	929	5,2%
8	Mikrokreditbank	10 942	667	6,1%
9	Turon bank	8 121	302	3,7%
10	Aloqa bank	7 965	388	4,9%
11	Poytaxt bank	72	2	2,4%
12	O‘zagroeksportbank	29	16	55,7%
<b>Boshqa banklar</b>		<b>47 961</b>	<b>1 922</b>	<b>4,0%</b>
13	Hamkorbank	9 827	90	0,9%
14	Kapital bank	8 760	236	2,7%
15	Ipak yo‘li bank	6 457	227	3,5%
16	Orient Finans bank	3 756	29	0,8%
17	Invest Finance bank	3 663	55	1,5%
18	Trastbank	2 738	53	1,9%
19	Davr bank	2 217	12	0,5%
20	Asia Alliance bank	1 930	254	13,1%

21	KDB Bank O'zbekiston	1 795	0,0	0,0%
22	Tenge bank	1 627	43	2,6%
23	Ziraat Bank Uzbekistan	838	20	2,3%
24	Savdogar bank	833	97	11,6%
25	Universal bank	780	30	3,8%
26	Anor bank	751	14	1,9%
27	Turkiston bank	682	471	69,1%
28	Ravnaq-bank	531	113	21,3%
29	Tibisi bank	453	10	2,3%
30	Madad Invest bank	161	30	18,5%
31	Hi-Tech bank	149	139	92,9%
32	Eron Soderot bankining ShB	13	0,1	0,5%
33	Apelsin bank	0,0	0,0	0,0%

mlrd. so'm

Sana	Kreditlar			Muammoli kreditlar (NPL)			Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, foizda		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
01.01.2021 y.	276 974,8	244 483,9	32 490,9	5 784,8	5 167,6	617,2	2,1	2,1	1,9
01.02.2021 y.	277 754,6	245 001,2	32 753,4	7 487,0	6 858,1	628,9	2,7	2,8	1,9
01.03.2021 y.	280 214,7	246 631,5	33 583,1	7 844,3	7 226,1	618,2	2,8	2,9	1,8
01.04.2021 y.	283 485,1	249 302,8	34 182,2	10 177,9	8 440,9	1 737,0	3,6	3,4	5,1
01.05.2021 y.	292 029,0	256 648,7	35 380,3	12 932,7	11 188,0	1 744,7	4,4	4,4	4,9
01.06.2021 y.	297 777,9	261 488,6	36 289,3	14 006,7	12 214,4	1 792,3	4,7	4,7	4,9
01.07.2021 y.	300 459,4	261 194,7	39 264,7	16 793,7	14 718,1	2 075,6	5,6	5,6	5,3
01.08.2021 y.	302 692,8	262 384,6	40 308,2	18 888,5	16 715,1	2 173,4	6,2	6,4	5,4
01.09.2021 y.	307 204,2	265 479,2	41 725,1	18 474,2	16 310,8	2 163,5	6,0	6,1	5,2
01.10.2021 y.	311 590,6	268 938,8	42 651,8	18 126,0	15 844,9	2 281,0	5,8	5,9	5,3
01.11.2021 y.	316 200,2	272 401,6	43 798,6	18 017,0	15 670,4	2 346,6	5,7	5,8	5,4
01.12.2021 y.	320 812,5	275 757,2	45 055,3	18 392,1	16 117,8	2 274,2	5,7	5,8	5,0
01.01.2022 y.	326 385,6	280 073,6	46 311,9	16 974,0	15 068,8	1 905,2	5,2	5,4	4,1
01.02.2022 y.	324 138,9	277 521,7	46 617,2	17 476,6	15 522,1	1 954,5	5,4	5,6	4,2
01.03.2022 y.	327 179,8	279 218,4	47 961,4	17 211,7	15 289,8	1 921,9	5,3	5,5	4,0
01.04.2022 y.	340 258,7	289 760,0	50 498,7	16 830,8	14 972,8	1 858,0	4,9	5,2	3,7
01.05.2022 y.	340 254,7	288 536,2	51 718,5	18 084,1	15 926,5	2 157,6	5,3	5,5	4,2
01.06.2022 y.	345 201,4	292 140,0	53 061,4	18 282,2	16 077,9	2 204,3	5,3	5,5	4,2
01.07.2022 y.	343 572,4	288 962,9	54 609,5	16 794,9	14 535,2	2 259,8	4,9	5,0	4,1

*2-rasm. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL)<sup>11</sup>*

Tijorat banki sifati «substandart» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining o'n foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

<sup>11</sup> Markaziy Bankning Statistika byulleteni - 2022-yil 1-yarim yillik <https://cbu.uz>

Asosiy qarz va foizlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lib, uning muddati 90 kundan oshmagan bo'lsa, u qoniqarsiz deb tasniflanadi.

Tijorat banki sifati «qoniqarsiz» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yigirma besh foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim. Quyida keltirilgan omillardan hech bo'lmaganda bittasi mavjud bo'lsa, aktivlarning sifati «shubhali» deb tasniflanadi:

-«qoniqarsiz» aktivlarning hech bo'lmaganda birorta ko'rsatkichi, shuningdek ayrim boshqa salbiy tavsiflari mavjud bo'lsa (bozorda oson sotiladigan ta'minotning mavjud emasligi yoki ta'minlanmagan aktivlarning mavjudligi yoxud qarz oluvchining bankrot deb e'lon qilinishi);

-yaqin kelajakda aktivning qisman to'lanish ehtimoli mavjud bo'lsa;

Asosiy qarz va foizlar bo'yicha 90 kundan ortiq lekin, 180 kundan oshmagan muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa u holda ushbu aktiv shubhali deb tasniflanadi va aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining ellik foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Asosiy qarz va foizlar bo'yicha 180 kundan ortiq kunga muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa, ushbu aktivlar «umidsiz» deb tasniflanadi.

Tijorat banki sifati «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yuz foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Shuningdek, yangi kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, Markaziy bank tijorat banklari kredit portfelini tahlil qilgan holda, tijorat banklariga qo'shimcha ravishda aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar shakllantirish yuzasidan ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar yuborishi mumkin. Bundan tashqari, yangi kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarga ko'ra, bank tomonidan ajratilayotgan barcha kreditlar bo'yicha to'lovlar kredit shartnomasining butun amal qilish muddatiga taqsimlangan holda bo'lib-bo'lib to'lanishi belgilab qo'yildi.

Ushbu qoida banklarda muammoli kreditlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan ogohlantiruvchi belgi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda, kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, tijorat banklari o'z aktivlari sifatini tasniflash bo'yicha bir qator yangiliklar kiritildi

Jumladan, eski qoidalarga ko'ra, 30 kungacha to'lov muddati o'tgan kreditlar «standart», 90 kungacha to'lov muddati o'tgan kreditlar «substandart» va 180 kundan ortiq kunga to'lovi kechiktirilgan kreditlar «umidsiz» sifatida tasniflangan bo'lsa, yangi tartibga ko'ra shartnoma muddatida to'lanmagan va grafik bo'yicha asosiy qarz va foizlar bo'yicha oraliq to'lovlar 180 kundan kechiktirilgan barcha kreditlar «umidsiz» sifatida tasniflanadi.

Bugungi kunda respublikamizda tijorat banklari kredit qo'yilmalari etarli darajada diversifikatsiyalangan bo'lib, respublika bank tizimida iqtisodiyot tarmoqlari faoliyati bilan bog'liq xatarlar mo'tadil darajada shakllangan.

Xususan, 2021 yilning 1 yanvar holatiga tijorat banklari kredit qo'yilmalarining 50,9 foizi sanoat, 10,7 foizi transport va kommunikatsiya sohasi, 9,3 foizi jismoniy shaxslar, 3,7 foizi savdo va umumiy xizmat ko'rsatish sohasi, 4,3 foizi qishloq xo'jaligi sohasiga hamda 3,1 foizi qurilish sohasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek 2022- yilning yanvar-mart oylarida



tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 5,5 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 115,4 % ni tashkil etdi. Respublika bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami investitsiyalardagi tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalarning ulushi 2021-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga kamayib, 11,0 % ni tashkil etdi.<sup>12</sup>

### **XULOSA VA MUHOKAMALAR**

Bizning fikrimizcha mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni muammoli kreditlarga aylanmasligini oldini olish maqsadida quyidagi takliflarni keltirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- banklarga kredit uchun kelib tushgan arizaga atroflicha yondashuv, ya'ni daslabki monitoringni to'g'ri va mukammal amalga oshirish. Bu erda birinchi navbatda mijozning xarakteriga, uning moliyaviy ahvoriga, biznes hamkorlari orasidagi mavqeiga hamda ushbu sohadagi tajribasiga asosiy e'tiborni qaratish;

- kredit arizasini ko'rib chiqilayotgan davrda mijoz tomonidan bankka takdim etayotgan hujjatlar to'plamining to'liqligini va ularning to'g'riligini tekshirish. Kredit bo'limi xodimi tomonidan mijozning moliyaviy ahvoli chuqur tahlil etilishi va xolisona baho berilishi zarur;

- kredit ajratilgan davrdan boshlab, mijozning biznes-rejasi bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarini, hisobraqamidagi mablag'lari aylanmasini doimiy ravishda nazorat qilib borish, muddati o'tgan debitorlik-kreditorlik qarzdorliklariga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

- kredit ta'minoti sifatida taqdim etilgan mol-mulknini saqlash va ekspluatatsiya sharoitini doimiy ravishda nazorat qilib borish;

- kredit ta'minoti sifatida uchinchi shaxsning kafillik shartnomasi taqdim etilgan bo'lsa, kafilning moliyaviy hisobotlarini har chorakda bir marotaba tahlil qilib uning to'lov qobiliyatini o'rganib borish;

- korxonaning mol-mulknini baholashda bankning mulknini baholash bo'yicha mutaxassisiga ko'proq imkoniyatlar yaratib berish.

Qo'shimcha sifatida fikrimizcha, tijorat banklarida muammoli kreditlarni samarali boshqarishda quyidagi bir qator omillarni hisobga olish zarur:

• bank aktivlari sifati ustidan doimiy, ta'sirchan monitoring olib borish, bank aktivlari bilan bog'liq muammoli holatlarni dastlabki bosqichlarda aniqlash va bartaraf etish mexanizmini mustahkamlash;

• banklarda aktivlarni keng diversifikatsiya qilish, kredit portfelini sog'lomlashtirish orqali tavakkalchiliklarni samarali boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib ularga zarur o'zgartirishlar kiritib borish;

• bank tizimiga oid qabul qilingan qarorlar hamda kredit munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar ijrosini tashkil qilish asosida kreditlash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni baholash, o'rganish, ularni tahlil qilish, biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishini nazorat qilish;

• muammoli kreditlarni boshqarishning yangi usullarini shakllantirish;

• bank kredit siyosati va kreditlash tamoyillari shartlariga rioya etilishini nazorat qilish.

<sup>12</sup> <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/22189-o-zbekiston-respublikasida-tijoratbanklari-kreditlari-va-boshqa-qarz-mablag-lari-hisobidan-asosiy-kapitalga-o-zlashtirilgan-investitsiyalar-4>

**ADABIYOTLAR:**

1. 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son <https://lex.uz/uz/docs>
2. Vazirlar Mahkamasining «Banklarning kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorning likvidli molmulkiga qaratish tartibini tasdiqlash to'g'risida»gi №422 sonli Qarori, 04.12.2002 yil
3. Karimov I.A. 2021-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish - ustuvor vazifamizdir.//Xalq so'zi, 2021 yil 17 yanvar №13.
4. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. T.: Moliya, 2012, 124-6.
5. Пещанская И.В. Организация деятельности коммерческого банка: Учебное пособие. -М.: ИНФРА-М, 2001,33-6.
6. Роуз П. Банковский менеджмент. Пер. с англ. - М.: Дело, 2019, 192-б.
7. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish. Sh.Abdullaeva, Z,Safarova."Moliya" 2020
8. Управление деятельностью коммерческого банка(банковский менеджмент)/ Под ред. д-ра экон. наук, проф. О.И.Лаврушина. - М.: Юристъ, 2002, 456-б
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari, 2020-2021 yillar
10. Azlarova Aziza Axrorovna "Tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish masalalari" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2018 yil 3-b
11. Saeid Khajeh Dangolania. The impact of information technology in banking system (A case study in bank Keshavarzi Iran) // Procedia - social and behavioral sciences, Vol. 30, 2011. - 13-16 p.
12. Goyal J., Singh M., Singh R., Aggarwal A. Efficiency and technology gaps in Indian banking sector: Application of meta-frontier directional distance function DEA approach // The Journal of finance and data science, Vol. 5 (2019), 156-172